



O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi

ONLAYN UCHRASHUV
"QORAQALPOG'ISTONNING TURIZM SALOHIYATI:
YANGI IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR"

Dastur

16 iyun 2021 yil

Kirish

2021-yil 16-iyun kuni YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi O'zbekiston Respublikasi turizm va sport vazirligi bilan yaqin hamkorlikda "Qoraqalpog'istonning turizm salohiyati: yangi imkoniyatlar va muammolar" mavzusida onlayn-yig'ilish o'tkazadi. Ushbu tadbir "Barqaror qishloq hududlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligining dolzarb muammolarini hal qilish" Qo'shma dasturi doirasida tashkil etildi.

Uchrashuvning maqsadi - barcha manfaatdor tomonlarni Qoraqalpog'istonning turizm salohiyatini targ'ib qilishning yangi imkoniyatlari va muammolarini va shu tariqa uning mintaqada barqaror turizmni rivojlantirishga qo'shgan hissasini muhokama qilishga jalb qilish. Uchrashuv THINK TANK (aqliy hujum) formatida bo'lib o'tadi.

Qoraqalpog'iston (mahalliy yoki xalqaro) sayyohlarga juda o'ziga xos bir narsa taklif qilishi mumkin. Bu Orol dengiziga ekstremal sayohatmi, A.I. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyiga tashrif yoki Qadimgi Xorazmning arxeologik merosiga ekskursiya qilish, Qoraqalpog'istonning turistik taklifi O'zbekistonning boshqa mintaqalaridan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan madaniyat va urf-odatlar va, albatta, ushbu mintaqaga uchun juda ko'p noyob turizm mahsulotlari va taassurotlarini o'z ichiga oladi. Aynan shu Covid 19dan keyingi davrdagi sayohatchi qidirayotgan narsadir.

Covid-19dan keyingi davr bozorida sarguzashtlarga, gastronomik va haqiqiy ekoturizmga bo'lgan talabning kutilayotgan o'sishi, Qoraqalpog'iston kabi yo'nalishlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Yaqin kelajakda turizm destinatsiyalarining asosiy so'zlari, ehtimol, "tegilmagan, haqiqiy, noma'lum, gavjum bo'lmagan" kabi bo'lishi mumkin. Qoraqalpog'iston bu yangi va haqiqiy taassurotlarni taqdim etmoqda, ammo biz ushbu imkoniyatdan foydalana olamizmi?

Aynan shu sababli YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi turizm pandemiyadan keyin qayta tiklanishning dastlabki belgilarini namoyish etgayotgan paytda xabardorlikni oshirish va salohiyatni kengaytirish bo'yicha bir qator tadbirlarni o'tkazmoqda. Pandemiya bilan bog'liq muammolar tufayli turizmga sarmoya kiritish uchun juda kam yangi kapital mavjud bo'lgan paytda infrastrukturani takomillashtirishdan tortib, kasbiy tayyorgarlik, transport, byudjetlashtirish, mehmondo'stlik, sifat va, ehtimol, xalqaro miqyosda va mahalliy miqyosda marketing uchun eng muhim bo'lgan turizm takliflarining to'liq spektrini o'rganish kerak. Ushbu tadbirlar ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan va shuning uchun bu uchun bundan boshqa yanada qulayroq vaqt bo'lishi mumkin emas edi.

Ushbu yig'ilish barcha manfaatdor tomonlarni mahalliy xususiy va davlat sektorlari va mahalliy hamjamiyatni ishtirok etishdagi faollik darajasini oshirish uchun birgalikda harakat qilishlari uchun birlashtirish yo'li bilan Qoraqalpog'istonning madaniy va tabiiy merosi to'g'risida xalqaro miqyosda (va bilvosita natijada, shuningdek, milliy darajada) xabardorlikni oshirishga qaratilgan loyihaning yangi tarkibiy qismidagi birinchi tadbirdir.

Onlayn yig'ilishda "Media va turizm: taraqqiyotga yangi yondashuvlar" mavzusida amaliy trening (2021-yil 23-24 - iyun, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston, shuningdek, onlayn rejimida bo'ladi) va Qoraqalpog'istondagi turizm va uning salohiyati, shu jumladan madaniy va tabiiy meros bo'yicha media-kontent yaratish bo'yicha onlayn-inkubator bo'lib o'tadi (2021 yil 30 iyun - 6 avgust).

BMT Taraqqiyot dasturi va YUNESKOning "Barqaror qishloq hududlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligining dolzarb muammolarini hal qilish" Qo'shma dasturi BMTning Orol dengizi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha Ko'psheriklik trust fondi (MPTFCHB) moliyaviy ko'magi bilan amalga oshiriladi. Loyihaning maqsadi ekologik muammolarni kompleks hal qilish, asosiy xizmatlardan foydalanishga ko'maklashish, Qoraqalpog'istonda turmush darajasini oshirish va barqaror turizmni rivojlantirish yo'li bilan Orol dengizi mintaqasining eng zaif jamoalarida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy beqarorlikni bartaraf etishdan iborat. Bundan tashqari, loyiha orqali YUNESKO daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish va Orol dengizi mintaqasida jamoatchilik va ekologik turizm asosida Qoraqalpog'istondagi turizm sektorining inklyuziv barqaror o'sishini ta'minlash orqali qishloq aholisining, shu jumladan ayollar va yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini oshirishga yordam bermoqda.

Dastur

(Zoom- ссылка: [https://us02web.zoom.us/meeting/register/tZ0pduCurDgqGd3viVl22BJBUxAHkwHGUPQu](https://us02web.zoom.us/join/https://us02web.zoom.us/meeting/register/tZ0pduCurDgqGd3viVl22BJBUxAHkwHGUPQu)
Onlayn konferentsiyada ro'yxatdan o'tish va kirish uchun ushbu havoladan foydalaning)

2021 yil 16-iyun (chorshanba)

13:45–14:00	Ishtirokchilar virtual yig'ilish xonasiga kirishadi
	Ochilish marosimi
14:00–14:30	Qutlo'v so'zlari: - Janob Jan Xladik, YuNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari (videomurojaat) - Janob Rasul Zarikeev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari - Alla Peresolova xonim, barqaror turizm bo'yicha xalqaro ekspert va Ipak yo'li bo'yicha mutaxassis
1-sessiya	Ekspertlarning taqdimotlari
14:30–14:50	Pandemiyadan keyingi turizmning global tendentsiyalari va Qoraqalpog'iston uchun imkoniyatlarini ko'rib chiqish <i>Alla Peresolova, barqaror turizm bo'yicha xalqaro ekspert va Ipak yo'li bo'yicha mutaxassis</i>
14.50–15.10	Turoperatorlarni so'rov qilish natijalari va tahlillari taqdimoti <i>Kevin Xarris, turizm sohasi bo'yicha raqamli marketolog</i>
15.10–15.30	Qoraqalpog'iston OAVda yoritilishi bo'yicha tadqiqotning taqdimoti <i>Jon Bell, jurnalist va turizm bo'yicha mutaxassis</i>
2-sessiya	Ochiq munozara va Savollar / mavzular bo'yicha javoblar:
15.30–16:30	<ul style="list-style-type: none">• Turizmdan manfaatdor tomonlarning umidlari• Qoraqalpog'istonning turizm infratuzilmasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari• Har bir mehmon mening do'stim. Barcha tashqi bozorlarga turizmni ochish.• Pandemiyadan keyin-turizm qayta boshlanganda va kelajakda bu sayyohlarning umidlari.• Loyihaning ushbu tarkibiy qismida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki. Qanday qilib uni inklyuziv qilish kerak
16.30–16.40	Xulosa va yakuniy fikrlar

Mutaxassislar:

Janob Jon Bell, jurnalist va turizm bo'yicha mutaxassis (gazeta, radio va televidenie), butun dunyo bo'ylab bir qator oliy o'quv yurtlari shu jumladan, nufuzli Monash universiteti, Melburn, Avstraliyada barqaror turizm kursini oqitadi. U xalqaro turizm konferentsiyalarida tez-tez moderator va turizm va OAV bo'yicha maslahatchi bo'lib ishlaydi va radio va televideniya ishlarini davom ettiradi.

Telefon: +44 7715 370 447

Elektron pochta: travelwriterjb@yahoo.co.uk

Alla Peresolova xonim, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon turizm tashkiloti (YuNVTO) Ipak yo'li dasturining sobiq rahbari, Ipak yo'li yo'nalishlarida katta tajribaga va mintaqaviy, milliy va mahalliy turizm tashabbuslarini yaratish va amalga oshirishda, marketing strategiyalari va harakatlar rejalarini ishlab chiqishda aniq tajribaga va muvaffaqiyatga ega bo'lgan barqaror turizm va tematik marshrutlarni rivojlantirish bo'yicha xalqaro ekspert. U O'zbekiston turizm va sport vazirligi huzuridagi turizmni rivojlantirish institutining maxsus maslahatchisi.

Telefon +34 655 22 62 58

Elektron pochta: aperessolova@gmail.com

Janob Kevin Xarris, sayohat, dam olish va turizm sohasida taniqli reklama va marketing kampaniyalarini ta'minlaydigan ijodiy agentliklarda 25 yillik boshqaruv tajribasiga ega bo'lgan turizm sohasidagi marketing bo'yicha mutaxassisdir. Ushbu keng ko'lamlı tajriba uni Nyu-York, Las-Vegas, Texas turizmi, Keniya sayyohlik va Bermuda turizmi kabi dunyodagi taniqli destinatsiyalar bilan ishlashga olib keldi.

Elektron pochta: kevin@mdsg.eu

YuNESKO:

Muxayyo Maxmudova xonim, madaniyat ishlar bo'yicha mutaxassis, YuNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi;

Telefon: (99878) 1207116, 1207154, 1207155

Elektron pochta: m.makhmudova@unesco.org